



## USING UNCONVENTIONAL METHODS IN MOTHER TONGUE AND READING LITERACY CLASSES IN ELEMENTARY GRADES

Yulduz Muxiddinova<sup>1</sup>

*Nukus State Pedagogical Institute named after Ajiniyoz*

DOI: 10.5281/zenodo.15356854

Article History	Abstract
Received: 10.04.2025	This article highlights the pedagogical importance of enriching the content of native language and reading literacy classes in primary classes, increasing students' interest in the lesson and using unconventional methods in the development of their speech and creative potential. In addition to traditional approaches, opportunities to improve the effectiveness of classes are analyzed through the use of playful techniques, role-playing games, cluster, mental attack, dramatization, associative thinking, creative writing, and interactive assignments. It is also objectively studied how non-traditional methods affect the ability of elementary students to think freely, access to communication skills, independent reading and expressive speech. Proposals and recommendations are developed for the adaptation of modern methods formed on the basis of foreign experiences to the practice of National Education, the creation of conditions that stimulate creativity and independent thinking in the lesson. The article provides teachers with scientific and practical grounds for using unconventional approaches in their professional activities.
Accepted: 07.05.2025	

**Keywords:** primary education, native language, reading literacy, non-traditional methods, innovative approaches, interactive methods, speech development, creative thinking, dramatization, role-playing games, lesson effectiveness.

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

<sup>1</sup> Student of Primary Education, Ellikkala Pedagogical Faculty, Nukus State Pedagogical Institute named after Ajinyoz, Uzbekistan

# BOSHLANG'ICH SINFLARDA "TINISH BELGILARINI" O'RGATISHDA NOANANAVIY USULLARDAN FOYDALANISH

KALIT SO'ZLAR/

**КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:**

boshlang'ich ta'lim, ona tili, o'qish savodxonligi, noan'anaviy usullar, innovatsion yondashuvlar, interfaol metodlar, nutqni rivojlantirish, ijodiy fikrlash, dramatizatsiya, rolli o'yinlar, dars samaradorligi.

## ANNOTATSIYA/ АННОТАЦИЯ

Mazkur maqolada boshlang'ich sinflarda ona tili va o'qish savodxonligi darslarining mazmunini boyitish, o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshirish va ularning nutqiy-ijodiy salohiyatini rivojlantirishda noan'anaviy usullardan foydalanishning pedagogik ahamiyati yoritiladi. An'anaviy yondashuvlar bilan bir qatorda, o'yinli metodlar, rolli o'yinlar, klaster, aqliy hujum, dramatizatsiya, assotsiativ fikrlash, ijodiy yozuvlar va interaktiv topshiriqlardan foydalanish orqali darslar samaradorligini oshirish imkoniyatlari tahlil qilinadi.

Shuningdek, noan'anaviy metodlarning boshlang'ich sinf o'quvchilarining erkin fikrashi, muloqotga kirisha olish ko'nikmalari, mustaqil o'qish va ifodali nutq yurita olish qobiliyatiga qanday ta'sir ko'rsatishi xolisona o'rganiladi. Xorijiy tajribalar asosida shakllangan zamonaviy metodlarning milliy ta'lim amaliyotiga moslashuvi, darsda ijodkorlik va mustaqil fikrlashni rag'batlantiruvchi sharoitlarni yaratish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Maqola o'qituvchilarga o'z kasbiy faoliyatida noan'anaviy yondashuvlardan foydalanish bo'yicha ilmiy-amaliy asoslar beradi.

## **KIRISH**

Zamonaviy ta'lim tizimi oldida turgan asosiy vazifalardan biri — o'quvchilarni mustaqil fikrlovchi, ijodiy yondashuvchi, muloqotga kirisha oladigan va ijtimoiy faol shaxslar sifatida tarbiyalashdir. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichida ona tili va o'qish savodxonligi darslari orqali bu ko'nikmalarni shakllantirish alohida ahamiyat kasb etadi. An'anaviy dars uslublari o'rnida noan'anaviy, ya'ni interfaol va ijodiy yondashuvlarga asoslangan metodlardan foydalanish o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshiradi, ularni faollikka undaydi hamda o'z fikrini erkin ifoda eta olishga o'rgatadi. Mazkur maqolada boshlang'ich sinflarda ona tili va o'qish savodxonligi darslarida noan'anaviy usullarning mohiyati, ularning turlari va ta'lim jarayoniga ijobjiy ta'siri tahlil qilinadi.

### **1. Noan'anaviy usullarning ta'lim jarayonidagi o'rni**

Noan'anaviy usullar — bu o'quvchilarning dars jarayonidagi ishtirokini faollashtirish, mustaqil fikrleshga undash, muloqot madaniyatini shakllantirishga qaratilgan pedagogik vositalardir. Ular orqali an'anaviy biryoqlama "o'qituvchi-o'quvchi" modeli o'rniga, ikki tomonlama interaktiv muloqotga asoslangan, erkin fikr almashish, guruhlarda ishlash, rolli harakatlar orqali o'rganish imkoniyati yaratiladi. Aynan boshlang'ich sinfda bu kabi usullar o'quvchilarning psixologik va yosh xususiyatlariga mos keladi, ularning bilim olish jarayonini o'yin va ijodiy faoliyat bilan uyg'unlashtiradi.

### **2. Noan'anaviy metodlarning turlari va ularning afzalliklari**

Quyida boshlang'ich ta'limda samarali bo'lgan asosiy noan'anaviy metodlar va

ularning o'ziga xos jihatlari keltiriladi:

- Rolli o'yinlar (rolga kirish, dramatizatsiya): bu metod orqali o'quvchilar matn qahramonlariga aylanib, ularning his-tuyg'ulari, harakatlari, nutqiy ifodalarini jonlantiradi. Bu esa og'zaki nutqni rivojlantirishga xizmat qiladi.

- Aqliy hujum (brainstorming): o'quvchilar guruhda ishlash orqali berilgan mavzu yuzasidan o'z fikrlarini erkin bildiradilar, bu esa ularning tafakkurini kengaytiradi.

- Klaster va insert texnologiyalari: matn bilan ishlash jarayonida asosiy g'oyalarni ajratish, tushunchalar orasidagi bog'liqlikni anglash va mustaqil fikrlashga yordam beradi.

- Assotsiatsiyalar tuzish: biror so'z yoki ibora asosida o'quvchining tasavvuri, obrazli fikrlashi, estetik dunyoqarashi rivojlanadi.

- Yozma ijodiy ishlar (matn yozish, hikoya to'ldirish, she'r to'qish): bu metodlar orqali bolalarda yozma nutq, til boyligi va fikr bayoni shakllanadi.

- Juftlikda va kichik guruhda ishlash: hamkorlikda fikr almashish, fikrni himoya qilish va muhokama qilish malakalari rivojlanadi.

### **3. Noan'anaviy usullarning o'quvchilar rivojiga ta'siri**

Noan'anaviy metodlar o'quvchilarda quyidagi ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi:

- Muloqot qilish, tinglash va fikr bildirish madaniyati;
- Mustaqil o'ylash va ijodiy yondashish;
- Matnni tahlil qilish va umumlashtirish;
- Ko'z oldiga keltirish, obrazli tasvirlash;
- Nutq boyligi va ifodali so'zlash;
- Jamoada ishlash va ijtimoiy faollilik.

Bunday metodlar ayniqsa o'z fikrini erkin ayta olmaydigan, uyatchan bolalarni faollashtirishda katta yordam beradi. Bu esa psixologik jihatdan sog'lom, o'ziga ishonadigan, ijtimoiylashgan shaxsni shakllantirishga xizmat qiladi.

### **4. O'qituvchi roli va metodik yondashuvlar**

Noan'anaviy usullarni dars jarayoniga samarali qo'llash uchun o'qituvchi quyidagilarga e'tibor qaratishi lozim:

- O'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish;
- Har bir darsni ijodiy va qiziqarli tarzda tashkil etish;
- Faoliyatga yo'naltirilgan topshiriqlar tuzish;
- Darsda erkin muloqot muhiti yaratish;
- Har bir o'quvchini dars jarayoniga faol jalb etish;
- Baholashning rag'batlantiruvchi shakllaridan foydalanish.

### **5. Noan'anaviy usullarning amaliy tatbiqi: darsdan misollar**

Noan'anaviy metodlarni amaliyatga tadbiq etishda dars mazmuni, o'quvchilarning tayyorgarlik darajasi va mavzuning murakkabligi hisobga olinadi. Masalan:

- "Kechikkan maktub" usuli: O'quvchilar hikoya yoki ertak qahramonlaridan biri nomidan boshqa personajga maktub yozadilar. Bu orqali bolalar matnni tahlil qiladi,

muammoli vaziyatlarni tushunadi va yozma nutqini boyitadi.

- "Xayolot ko'prigi" usuli: Matn o'qilgandan so'ng o'quvchilardan "Agar men shu qahramon bo'lganimda nima qillardim?" degan savol asosida og'zaki bayon qilish so'raladi. Bu metod bolalarda empatiya, tahliliy fikrlash va obrazli tasavvurni rivojlantiradi.

- "Oltin baliq" o'yini: Dars so'ngida o'quvchilarga uchta istak tilash taklif qilinadi, biroq istaklar kitobxonlik, yaxshi xulq va bilimga oid bo'lishi kerak. Bu usul bilan o'quvchilar tarbiyaviy g'oyalarni mustahkamlab boradilar.

## **6. O'quvchilarda kuzatiladigan natijalar va ijobiylar o'zgarishlar**

Noan'anaviy metodlar qo'llanganda boshlang'ich sinf o'quvchilarida quyidagi o'zgarishlar kuzatiladi:

- Darsga nisbatan qiziqish ortadi, ishtirok faollashadi;
- Fikrni og'zaki va yozma shaklda ifodalash ko'nikmalarini rivojlanadi;
- O'quvchilar darsda faol savol beradi, mustaqil fikr yuritadi;
- Kutilmagan vaziyatlarda ham o'z fikrini bildira oladi;
- Matnga tanqidiy va ijodiy yondashadi.

Bunday yondashuvlar ayniqsa sust faol o'quvchilarning darsga jalgan etilishiga xizmat qiladi, ularning o'ziga bo'lgan ishonchi ortadi.

## **7. Xalqaro tajriba va milliy ta'limga integratsiya**

Xorijiy mamlakatlar, jumladan Finlyandiya, Yaponiya, Janubiy Koreya, Kanada va AQShning boshlang'ich ta'limga tizimida noan'anaviy va ijodiy metodlar asosiy o'rinni egallaydi. Masalan:

- Finlyandiyada darslarda erkin muloqot, guruhlarda ishlash, o'yinlar orqali o'rganish ustuvor hisoblanadi;
- Kanadada o'quvchilarga yozma fikr bildirish topshiriqlari ko'p beriladi, ularning ijodiy yozuvlari baholanadi;
- Yaponiyada bolalarni boshqalarning fikrini eshitishga va mulohaza yuritishga o'rgatish uchun rolli metodlar keng qo'llaniladi.

Ushbu tajribalarni O'zbekiston boshlang'ich ta'limi bilan uyg'unlashtirish orqali ona tili va o'qish savodxonligi darslarining mazmunini yangilash, metodikasini takomillashtirish mumkin. Shu bilan birga, milliy qadriyatlar, xalq og'zaki ijodi namunalari va bolalarning mentalitetiga mos yondashuvlar asosida integratsiyalashgan darslar tashkil qilish o'quvchilar nutqini samarali rivojlantiradi.

## **8. Noan'anaviy metodlarni qo'llashda uchraydigan muammolar va ularning yechimlari**

Ta'limga jarayoniga innovatsion va noan'anaviy yondashuvlarni joriy qilish o'ziga xos murakkabliklarni ham keltirib chiqaradi. Jumladan:

- O'qituvchilarning metodik tayyorgarligi yetarli emasligi: ba'zi hollarda noan'anaviy usullarni qanday qo'llash, ularni dars mazmuniga integratsiya qilish bo'yicha yetarli bilim va ko'nikmalar yetishmaydi.

- "Yechim": malaka oshirish kurslari, seminar-treninglar, metodik qo'llanmalar va

tajriba almashish mashg'ulotlarini yo'lga qo'yish.

- Dars vaqt yetishmasligi: ko'plab noan'anaviy metodlar dars vaqtining ko'proq qismini talab qiladi.

- "Yechim": metodlarni rejalarashtirishda vaqtni to'g'ri taqsimlash, qisqa, ammo samarali usullarni tanlash, uyga topshiriq sifatida ijodiy mashqlar berish.

- Sinfxonalarning moddiy-texnik jihozlanish darajasi pastligi: ayrim metodlar uchun qo'shimcha texnika yoki materiallar kerak bo'ladi.

- "Yechim": mavjud sharoitdan maksimal foydalanish, zamonaviy texnologiyalar o'rniiga interaktiv vositalarning oddiy variantlarini qo'llash (masalan, doskada klaster, rasmli kartochkalar, qo'lda chizilgan materiallar).

- Ota-onalarning yondashuvga tushunmovchiligi: ba'zida noan'anaviy metodlarni ota-onalar "oddiy o'yin" sifatida baholaydi.

- "Yechim": ota-onalarni darslarga jalb qilish, ochiq darslar tashkil etish orqali ularning tushunchasini shakllantirish.

## **9. O'qituvchining kasbiy salohiyati va ijodkorligi**

Boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy saviyasi, ijodiy tafakkuri va didaktik yondashuvi dars sifati va natijasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Noan'anaviy metodlarni muvaffaqiyatli tatbiq qilish uchun o'qituvchi:

- pedagogik jarayonni chuqur tahlil qila olishi;
- metodlarni tanlashda bolalarning qiziqishi va ehtiyojlarini hisobga olishi;
- o'z ustida doimiy ishlashi, yangiliklardan boxabar bo'lishi;
- o'quvchilarning nutqiy rivojlanishini kuzatib borish, baholab borish malakasiga ega bo'lishi lozim.

Shuningdek, o'qituvchining shaxsiy fazilatlari – mehribonlik, bag'rikenglik, bolalar bilan o'zaro hurmatga asoslangan muloqot o'rnatish kabi jihatlar ham samarali darslar tashkil etish uchun muhim omillardandir.

## **10. Noan'anaviy metodlarni milliy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirish**

Noan'anaviy yondashuvlar faqat xorijiy tajribalar asosida emas, balki milliy an'ana va qadriyatlar bilan uyg'unlashgan holda tashkil etilganda yanada samaraliroq bo'ladi. Masalan:

- Xalq ertaklari asosida rolli o'yinlar;
- Mahalliy maqollar asosida assotsatsiyalar tuzish;
- Dramatik ifoda orqali maqol, topishmoq va hikmatli so'zlarni talqin qilish;
- Milliy bayramlarga bag'ishlangan ijodiy topshiriqlar (she'r yozish, hikoya tuzish, sahnalaشتirish).

Bu kabi yondashuvlar o'quvchilarda nafaqat til va nutq, balki vatanparvarlik, milliy g'urur, ma'naviy dunyoqarashni ham shakllantiradi.

## **XULOSA**

Boshlang'ich ta'lilda ona tili va o'qish savodxonligi darslarida noan'anaviy metodlardan foydalanish o'quvchilarning nutqiy, mantiqiy va ijodiy salohiyatini

rivojlantirishda juda katta ahamiyatga ega. Noan'anaviy yondashuvlar dars jarayonini faollashtiradi, o'quvchilarda o'z fikrini erkin ifoda eta olish, muloqot madaniyati va ijodkorlikni shakllantiradi. Ushbu metodlar nafaqat o'quvchilarning bilim darajasini oshirishga, balki ularni mustaqil fikrlovchi, ijtimoiy faollikka ega shaxs sifatida tarbiyalashga ham xizmat qiladi. Darslarning interfaol va innovatsion usullar bilan boyitilishi, o'quvchilarning o'z fikrlarini erkin ifodalashlari va ijodiy yondashuvlar orqali bilim olishlariga yordam beradi.

Innovatsion metodlarni qo'llashda yuzaga keladigan ba'zi muammolarni hisobga olgan holda, o'qituvchining kasbiy malakasi va metodik tayyorgarligi, shuningdek, material-texnik bazaning yetarli darajada rivojlanishi muhim omillardan biridir. O'qituvchilarning noan'anaviy usullarni qo'llashga bo'lgan ishtiyobi, o'quvchilarning darsdagi qatnashishini faollashtiradi va ularning bilim olish jarayoniga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Shu bilan birga, bu usullar o'quvchilarda nafaqat akademik bilimlarni, balki ma'naviy va axloqiy qadriyatlarni ham rivojlantiradi. Bolalar o'zlarini jamoa a'zosi sifatida his qilishadi, o'zaro hurmatni, bir-birining fikrini tinglashni o'rganadilar.

Xorijiy tajribalarga asoslanib, o'qituvchilar noan'anaviy metodlarni milliy an'analar, xalq og'zaki ijodi va qadriyatlar bilan uyg'unlashtirgan holda, o'z darslarini yanada boyitishi mumkin. Milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda ta'limni samarali tashkil etish, o'quvchilarni nafaqat til va adabiyotga bo'lgan muhabbatga, balki milliy madaniyatga ham qiziqtiradi. Xalq og'zaki ijodi, maqollar, hikmatli so'zlar, ertaklar va an'anaviy qadriyatlar, o'quvchilarda o'zligini anglashga yordam beradi va ularning ma'naviy rivojlanishiga xizmat qiladi.

O'zbekiston ta'lim tizimi uchun noan'anaviy metodlarni qo'llash nafaqat ta'lim sifatini oshirishga, balki xalqaro ta'lim tajribalariga moslashishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ushbu metodlar o'quvchilarning ijtimoiy va ma'naviy rivojlanishiga yordam beradi, ular mustaqil fikrlovchi, boshqalarning fikrini hurmat qiladigan va zamonaviy hayotda muvaffaqiyatli bo'lishga tayyor shaxslar sifatida shakllanadi. O'quvchilar o'z fikrlarini erkin ifodalay olish, boshqalarning nuqtai nazarini tinglash va muhokama qilish orqali bilim va ma'naviyatni birlashtiradi.

Kelajakda o'qituvchilarni noan'anaviy metodlarni qo'llashga tayyorlash, ularning pedagogik mahoratini oshirish va ta'limning samaradorligini yanada yuksaltirish uchun doimiy malaka oshirish tizimini joriy etish zarur. Shuningdek, ta'lim tizimida o'qituvchilar uchun zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o'rgatish va ularga yordam berish muhimdir. Ta'lim jarayonida noan'anaviy metodlarni muvaffaqiyatli tatbiq etish uchun o'qituvchilarni pedagogik yangiliklarga tayyorlash va ularga zarur qo'llanmalar bilan ta'minlash zarur.

Noan'anaviy usullarning qo'llanilishi ta'lim sifatini yuksaltirish va o'quvchilarni global miqyosda raqobatbardosh qilish uchun katta imkoniyat yaratadi. Bu usullar orqali boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning bilim olishdan tashqari, hayotdagi muvaffaqiyatlari va ijtimoiy faolliklarini shakllantirishga xizmat qiladi. Shunday qilib, boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'z ustida doimiy ishlashi, ta'lim metodlarini yangilab borishi,

o'quvchilarning qiziqishlarini hisobga olgan holda innovatsion pedagogik yondashuvlar yaratishi o'quvchilarning shaxsiy va akademik rivojlanishini ta'minlaydi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. K. Qosimova Ona tili o'qitish metodikasi Toshkent - 2009
2. R. Safarova Ona tili o'qituvchilar uchun metodik qo'llanma "Sharq" nashriyoti matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati Toshkent – 2016
3. M.Umarova "Bayonlar to'plami" Toshkent – 1992
4. Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi. "Barkamol avlod" O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T.: SHarq, 1997.
5. Umumiyl o'rta ta'limg davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining axborotnomasi", 7-maxsus son. T.: SHarq, 1999.
6. Boshlang'ich ta'lim bo'yicha yangi tahrirdagi davlat ta'lim standarti "Boshl. ta'l. jurnali". Toshkent, 2005. №5.
7. Boshlang'ich ta'lim bo'yicha yangi tahrirdagi o'quv dasturi "Boshl. ta'l. jurnali." Toshkent, 2005. №5.